Kompilyatsiya jarayonini o`zi 2 ta bosqichdan iborat. Avval preprotsessor ishlaydi, u matndagi kompilyatsiya direktivalarini bajaradi, jumladan # include direktivasi bo`yicha ko`rsatilgan kutubxonalarni C ++ tilida yozilgan modullarni dastur tarkibiga kiritadi. Shundan keyin kengaytirilgan dastur matni kompilyatorga uzatiladi. Kompilyator o`zi ham dastur bo`lib, uning uchun kiruvchi ma’lumot bo`lib, C ++ tilida yozilgan dastur matni hisoblanadi.

Kompilyator dastur matnini leksemma (atomar) elementlarga ajratadi va uni leksik, keyinchalik sintaktik tahlil qiladi.

Dastur matni tushunarli bo`lishi uchun izohlar ishlatiladi. Ular dastur amal qilishga hech qanday ta’sir qilmaydi. C ++ tilida izohlar ikki ko`rinishda yozish mumkin. Birinchisi <<G’*>> dan boshlanib <<▪*G’▪>> belgilari bilan tugagan barcha belgilar ketma ketligi izoh hisoblanadi, ikkinchisi, <<satriy izoh>> deb nomlanadi va u “G’G’” belgisidan boshlanadi va satr oxirigacha yozilgan belgilar ketma ketligi bo`ladi. Izohning birinchi ko`rinishda yozilgan izohlar bir necha satr bo`lishi va ulardan keyin C ++ operatorlari davom etishi mumkin.

C ++ TILI ALFAVITI VA LEKSEMMALAR

- Katta va kichik lotin alfaviti harflari;
- Raqamlar – 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9;
- Maxsus belgilar: “,{,},G’,(,),g’ ,%,; ‘ ? _ G’& # .

Alfavit belgilaridan tilning leksemmalari shakllantiriladi:

- identifikatorlar;
- kalit (xizmatchi yoki zaxiralangan) so`zlar;
- o`zgarmaslar;
- amallar belgilanishlari;
- ajratuvchilar.

IDENTIFIKATORLAR VA KALIT SO`ZLAR

Dasturlash tilining muhim tayanch tushunchalaridan biri – identifikator tushunchasidir. **Identifikator** deganda katta va kichik lotin harflari, raqamlar va tag chiziq (‘__’) belgilaridan tashkil topgan va raqamlar boshlanmaydigan belgilar ketma ketligi tushuniladi. Identifikatorlar kalit so`zlarni, o`zgaruvchilarni, funksiyalarni, nishonlarni va boshqa ob’ektlarni nomlashda ishlatiladi. Identifikatorlarda harflarni registrlari (katta yoki kichikligi) hisobga olinadi. Masalan RUN, chip, Run bu har xil identifikatorlardir.

C ++ tilining kalit so`zlariga quyidagilar kiradi:

asm, auto, break, case, catch, char, class, const, continue, default, delete, do, double, else, enum, explicit, extern, float, for, friend, goto, if, inline, int, long, mutable, new, operator, private, protected, public, register, return, short, signed, sizeof, static, struct, swith, template, this, throw, try, typedef, typename, union, unsigned, virtual, void, volatile, while.

C ++ TILIDA STANDART FUNKSIYALARNING YOZILIShI.

№	Matematik yozilishi	C ++ tilidagi ifodasi
1	$\|x\|$	abs (x)
2	$\sqrt{x}$	sqrt (x) yoki pow(x,1G'2)
3	sin x	sin (x)
4	cos x	cos (x)
5	tg x	tan (x)
6	ctg x	cos (x) G'sin (x)
7	e^x	exp (x)
8	ln x	log (x)
9	x^2	x * x yoki pow (x,2)
10	x^3	pow (x,3)
11	x^{-3}	pow (x,–3)
12	x^n	pow (x, n)
13	$\sqrt[3]{x}$	pow (x,1/3)
14	$\sqrt[3]{tg\left(\frac{a}{b}\right)}$	pow (tan (a / b), 1/3)
15	ln $\|x\|$	log (abs (x))
16	$7.5 * 10^5$	7.5eQ5
17	$7.5 * 10^{-5}$	7.5e-5
18	lg x	log (x) G'log (0)
19	cos x^2	cos (pow (x,2))
20	$\cos^2 x$	pow (cos (x),2)
21	$\log_a b$	log (b) G'log (a)
22	$\cos^3 x$	pow (cos (x),3)
23	2^{x+1}	pow (2, x + 1)
24	$\lg \frac{x}{y}$	log 10 (x / y)
25	arcsin x	atan (x / sqrt (– x * x))
26	arcos x	atan (sqrt (– x * x) / x)
27	arctg x	atan (x)
28	arcctg x	atan (/ x)

Berilganlar qayta ishlash uchun C ++ tilida amallarning juda keng majmuasi aniqlangan. Amal - bu qandaydir harakat bo`lib, u bitta (unar) yoki bir necha (binar) operandlar ustida bajariladi, hisob natijasi uning qaytaruvchi qiymati hisoblanadi.

Tayanch arifmetik amallarga qo`shish(+), ayirish(-), ko`paytirish(*), bo`lish(/) va bo`lish qoldig`ini olish (%) amallarini keltirish mumkin.

Amallar qaytaradigan qiymatlarni o`zlashtirish uchun qiymat berish amali (q) va uning turli modifikatsiyalari ishlatiladi:qo`shish, qiymat berish bilan (+=); bo`lish, qiymat berish bilan (/+); ayirish, qiymat berish bilan,ko`paytirish, qiymat berish bilan (*+); bo`lish qoldig`ini olish, qiymat berish bilan(/=) va boshqalar. Bu holatlarning umumiy ko`rinishi:

<o`zgaruvchi><amal>+<ifoda>;

Quyidagi programma matnida ayrim amallarga misollar keltirilgan:

```
# include <iostream.h>
int  main ( )
{ int a=0, b=4, c=90;
char z='\ t';
a=b;                    // a=4
cout <<a<<z;
a=b+c+c+b;              // a=4+90+90+4=188
cout <<a<<z;
a=b-2;                  // a=2
cout <<a<<z;
a=b*3;                  // a=4*3=12
cout <<a<<z
a=c(b+6);               // a=90/(4+6)=9
cout <<a<<z;
cout <<a%2<<z;          // 9%2=1
a+=b                    // a=a+b=9+4=13
cout <<a<<z;
a*=c-50;                // a=a*(c-50)=13*(90-50)=520
cout <<a<<z;
a-=38;                  // a=a-38=520-38=482
cout <<a<<z;
a%=8                    // a=a%8=482%8=2
cout <<a<<z;
      return 0;
      }
```

Dastur bajarilishi natijasida ekranga quyidagi sonlar satri paydo bo`ladi

4   188   2   12   9   1   482   2

IFODA TUSHUNCHASI

C ++ tilida i f o d a - amallar, operandlar va punktatsiya belgilarining ketma ketligi bo`lib, kompilyator tomonidan berilganlar ustida ma'lum bir amallarni bajarishga ko`rsatma hisoblanadi. Har qanday ';' belgi bilan tugaydigan ifodaga **til ko`rsatmasi** deyiladi:

<ifoda>;

C ++ tilidagi ifodaga (til ko`rsatmasiga) misol:

X=5*(z-6.75);

Y=summa (a,9,c);

INKREMENT VA DEKREMENT AMALLARI

C++ tilida operand qiymatini birga oshirish va kamaytirishning samarali vositalari: inkrement (Q Q) va dekrement (- -) unar amallaridir. X=Y ++ - bu yerda "y"o`zgaruvchining qiymatini "x"o`zgaruvchisiga o`zlashtiriladi va keyin bittaga oshiriladi.

X= - - Y – bu yerda "y" o`zgaruvchining qiymati bittaga kamaytirilib, "x" o`zgaruvchisiga o`zlashtiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, murojaat qilishdan oldin ko`payadigan yoki kamayadigan operatsiyalar **prefiks** amallari, murojaat qilgandan keyin ko`payadigan yoki kamayadigan **postfiks** amallari deb ataladi.

RAZRYADLI MANTIQIY AMALLAR

Dastur tuzish tajribasidan ma’lumki, odatda qo`yilgan masalani y yechishda biror holat ro`y bergan yoki yo`qligini ifodalash uchun 0 va 1 qiymat qabul qiluvchi ifodalardan foydalaniladi. Bu maqsadda bir yoki undan ortiq baytli o`zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Quyidagi jadvalda C ++ tilida bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar keltirilgan.

Amallar	**Mazmuni**
&	Mantiqiy VA (ko`paytirish)
|	Mantiqiy YOKI (qo`shish)
+	Istisno qiluvchi YOKI
~	Mantiqiy INKOR (inversiya)

Razryadli mantiqiy amallarni bajarish natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

A	**B**	**C=A&B**	**C=A|B**	**C=A+B**	**C=~A**
0	0	0	0	0	1
0	1	0	1	1	1
1	0	0	1	1	0
1	1	1	1	0	0

TAQQOSLASh AMALLARI.

C ++ tilida qiymatlarni solishtirish uchun taqqoslash amallari aniqlangan bo`lib, quyidagi jadvalda keltirilgan:

Amallar	**Qo`llanilishi**	**Mazmuni** (o`qilishi)
<	A<B	“a kichik b”
<=	A<=B	“a kichik yoki teng b”
>	A>B	“a katta b”
>=	A>=B	“a katta yoki teng b”
= =	A= = B	“a teng b”
!=	A!=B	“a teng emas b”

C ++ tilidagi dasturning tarkibi. C ++ tilida tuziladigan dastur quyidagi strukturaga ega:

1. Direktivalar – funksiyalar kutubxonasini chaqirish (yuklash). Ular maxsus **inclule** katalogida joylashgan va .h fayllar deb nomlanadi. Dasturda masalaning qo`yilishiga qarab kerakli **include** lar chaqiriladi. Bu dasturning xotirada egallaydigan joyini minimallashtiradi.

Agar # include satrini T.Paskal tiliga solishtiradigan bo`lsak, modullar yoki maxsus operator va funksiyalar joylashgan bibliotekalar ko`rsatiladi.

C ++ dasturlash tilining yana bir ahamiyatli tomoni shundan iboratki, maxsus bibliotekalarga yo`l ko`rsatish imkoniyati mavjud. Masalan:

include “math.h”
include “G’userG’polG’math2.h”

Bu yerda math.h fayli joriy foydalanuvchi katalogida, math2.h esa /user/pol katalogida joylashgan, ya’ni kompilyator shu yerga murojaat qiladi.

OPERATOR TUSHUNCHASI

Dasturlash tili operatorlari yechilayotgan masala algoritmini amalga oshirish uchun ishlatiladi. Operatorlar chiziqli va boshqaruvchi operatorlarga bo`linadi. Aksariyat hollarda operatorlar “nuqta-vergul” (;) belgisi bilan tugallanadi. U kompilyator tomonidan alohida operator deb qabul qilinadi (for operatorini qavs ichida turgan ifodalari bundan mustasno).Bunday operator ifoda operator deyiladi. Jumladan, qiymat berish amallari guruhi, xususan, qiymat berish operatorlari ifoda operatori hisoblanadi.

I+ + ; - - J ; K+=I;

Dastur tuzish amaliyotida bo`sh operator – “;” ishlatiladi. Ammo bu operator hech nima bajarmasa ham, hisoblash ifodalarini til qurilmalariga mos kelishini ta’minlaydi. Ayrim hollarda yuzaga kelgan “boshi berk” holatlardan chiqib ketish imkonini beradi.

O`zgaruvchilarni e’lon qilish ham operator hisoblanadi va ularga e’lon operatori deyiladi

C ++ dasturlash tilini o`rganamiz. Ushbu dasturni ko`rib chiqamiz:

```
    # include <iostream.h>
    # define ITF “C++ dasturlash tilini o`rganamiz”
    # define Dars 1
    # define kerakliligi 100%
void main(void)
{
cout<<”kitob nomi:”<<ITF<<endl;
cout<<”navbatdagi mavzu:”<<Dasr<<endl;
cout<<”Umrboqiy:@”<<kerakliligi<<endli;
}
```

Natija:

Kitob nomi: C ++ dasturlash tilini o`rganamiz

Navbatdagi mavzu: 7

Umrboqiy: 100%

Masalan: berilgan x va u qiymatlarida A va V ifodalarni hisoblash dasturini tuzish kerak bo`lsin.

$$A = \left| \frac{\sin^3(\pi - x)}{\sqrt{(x-y)^2} + e^{(-x^2)}} \right|;\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\text{Bq}\,\frac{\sqrt{tg\pi}}{A*\ln(2*10^3 - \cos^2(x-y))}$$

Bu yerda x=6,3   y=1,2.

Dastur ko`rinishi:

```
{   arifmetik ifodalar C ++ dasturlash tilida}
# include <iostream.h>
# include <math.h>
using namespace std;
void main ( )
{
double pi=3.14159265;
double x=6.3, y=1.2,a,b;
cout<<”Natija :”<<endl;
aqabs (exp(3*log(sin(pi-x)))/sqrt((x-y)*(x-y)+exp(-x*x)));
bqexp((1/3)*log(sin(pi/3)/cos(pi/3)))G’(a*log(2000-cos(x-y)*cos(x-y)));
cout<<a<<endl;
cout<<b<<endl;
    }
```

include - preprotsessorning komandasi bo`lib, u quyidagicha tarjima qilinadi: ”Bu komandaning ortidan fayl nomi keladi. Ushbu nomdagi faylni topish va fayldagi mazmunni dasturning joriy qismiga yozish lozim”.

Burchakli qavs ichidagi faylni mos fayllar joylashtirilgan barcha papkalardan izlash lozimligini ko`rsatadi.Agarda kompilyator to`g`ri sozlangan bo`lsa burchakli qavslar iostream.h faylini sizning kompilyatoringiz uchun mo`ljallangan .h kengaytmali fayllarni o`zida saqlovchi papkadan izlashi kerakligini ko`rsatadi.iostream.h (input-output stream - kiritish chiqarish oqimi) faylida ekranga ma’lumotlarni chiqarish jarayonini ta’minlaydigan cout ob’ekti aniqlangan. Birinchi qator bajarilgandan so`ng iostream.h fayli joriy dasturga xudi uning mazmunini qo`l bilan yozganimizdek biriktiriladi. Preprotsessor kompilyatordan keyin yuklanadi va funt (#) belgi bilan boshlanuvchi barcha qatorlarni bajaradi, dastur kodlarini kompilyatsiyaga tayyorlaydi.

Dasturning asosiy kodi main( ) funksiyasini chiqarish bilan boshlanadi. C ++ tilidagi har bir dastur main( ) funksiyasini o`zida saqlaydi. Funksiya bu bir yoki bir necha amalni bajaruvchi dastur blokidir. Odatda funksiyalar boshqa funksiyalar orqali chaqiriladi, lekin main( ) funksiyasi alohida xususiyatga ega bo`lib u dastur ishga tushirilishi Bilan avtomatik tarzda chaqiriladi. Dasturni butunlay xotirangizdan o`chirib yubormaslik va boshqalarga ham tushunarli bo`lishi uchun izohlardan foydalanish lozim. Izohlar kompilyator tomonidan tushirib qoldiriladigan dasturning alohida satrida yoki butun bir blokida qo`llaniladi. Quyidagi listingni ko`rib chiqamiz.

1-listing. Salom. SRR dasturi misolida C ++ tilida tuzilgan dastur qismlarini namoyish qilish.

```
1:  / / Salom . C + + dasturi
2:  #include <iostream.h>
3:  int main (  )
4:  {
5:    cout  <<  ″Salom! g’n″;
6:    return  0;
7:   }
```

NATIJA:

Salom!

TAXLIL: 1-satrda iostream.h fayli joriy faylga biriktirilayapti. Dasturda birinchi funta (#) belgisi joylashgan. U protsessorga signal uzatadi. Kompilyatorning har safar ishga tushirilishida protsessor ham ishga tushiriladi. U dasturdagi funta (#) belgisi bilan boshlanuvchi qatorlarni o`qiydi.

Salom. C ++ dasturi misolida izohlarni namoyish qilish.

```
1:  # include <iostream.h>
2:   main ( )
3:   {
4:   cout << “Salom !\n”;
5: /* bu izoh toki izohning
6: Oxirini ko`rsatuvchi belgi, ya’ni yulduzcha
7: va slesh belgisi uchramaguncha davom etadi\n”;
8: cout <<”Bu kommentariy yakunlandi\n”;
9: // bu izoh satrni oxirida tugaydi.
10: // Ikkita sleshdan so`ng hech qanday tekst
11: // bo`lmasligi mumkin.
12: return 0;
13: }
```

NATIJA

Salom

Bu kommentariy yakunlandi

main ( ) funksiyasini boshqa funksiyalar kabi qaytaradigan qiymat tipini e’lon qilish lozim. Salom. SPP dasturida main ( ) funksiyasi int (integer – butun so`zidan olingan) tipli qiymat qaytaradi, ya’ni bu funksiya ishini tugatgandan so`ng operatsion sistemaga butun sonli qiymat qaytaradi. Operatsion sistemaga qiymat qaytarish unchalik muhim emas, umuman sistema bu qiymatdan foydalanmaydi, lekin C ++ tili standarti main ( ) funksiyasi barcha qoidalarga muvofiq e’lon qilinishini talab qiladi.

Barcha funksiyalar oluvchi figurali qavs ({) bilan boshlanadi va (}) yopuvchi qavs bilan tugaydi.

main ( ) funksiyasi figurali qavsida 3-satrdan 6-satrgacha joylashtirilgan. Figurali qavslarni ichida joylashgan barcha satrlar funksiya tanasi deb aytiladi.

Bizning oddiy dasturimizning barcha funksionalligi 4-satrda keltirilgan. cout ob’ekti ekranga malumotni chiqarish uchun qo`llaniladi. sin va cout ob’ektlari mos ravishda ma’lumotlarni kiritish (masalan, klaviatura orqali) va ularni chiqarish (ekranga chiqarish) uchun qo`llaniladi. main ( ) funksiyasi 6-satr bilan tugallanadi.

S o u t ob’ekti haqida qisqacha ma’lumot. Keyingi mavzularda siz **c o u t** ob’ektini qanday ishlatish lozimligini bilib olasiz. Hozir esa u haqida qisqacha ma’lumot beramiz. Ekranga ma’lumotni chiqarish uchun cout so`zini undan so`ng chiqarish operatorini (<<) kiritish lozim. C ++ kompilyatori (<<) belgisini bitta operator deb qaraydi. Quyidagi listingni tahlil qilamiz. **2-listing. sout ob’ektini qo`llanilishi.**

```
1:  // 2-listing cout ob’ektini qo`llanilishi//
2:  # include <iostream.h>
3:  int main( )
4:  {
5:  cout <<”Bu son 5 ga teng:”<<5<<”\n”;
6:  cout <<”endl operatori ekranda Yangi
7:  cout <<”satrga o`tish amalini bajaradi”;
8:  cout <<endl;
9:  cout <<”Bu katta son:\t”<<70000<<
10: endl;
11: cout <<”Bu 5 va 8 sonlarining yig`indisi:
12:  <<\t”<<8+5<< endl;
13: cout <<Bu kasr son:\t\t”<< (float) 5\8 <<endl;
14: cout <<”Bu esa juda katta son: \t”;
15: cout <<(double) 7000*7000<<endl;
16: return 0;
17: };
```

NATIJA:

```
Bu son 5 ga teng: 5
endl operatori ekranda yangi satrga o`tish amalini bajaradi.
Bu katta son: 70000
Bu 5 va 8 sonlarining yig`indisi: 13
Bu kasr son: 0.625
Bu esa juda katta son: 4.9e+07
```

Endl operatori end line (satr oxiri) degan so`zdan olingan bo`lib «end-el” deb o`qiladi.

Izoh

Ayrim kompilyatorlarda cout ob’ektidan keyin matematik operatsiyalarni bajarish uchun figurali qavslarni ishlatish talab qilinadi. U holda 2-listingning 11-satrida quyidagicha almashtirish bajarish lozim. 11: cout <<»Nere is the sum of 8 and 5<<(8+5)<<endl;

Funksiyalar. Biz oldinroq main( ) funksiyasi bilan tanishib chiqqan edik. Bu funksiya odatdagi bo`lmagan, yagona turdagi funksiyadir.Funksiyalar dasturning ishlash davrida chaqirilishi kerak. main ( ) funksiyasi esa dastur tomonidan emas, balki operatsion sistema tomonidan chaqiriladi.

Dastur berilgan matni bo`yicha satrlarni joylashishiga qarab tartib bilan toki biror bir funksiya chaqirilguncha bajariladi. Keyin esa boshqaruv birinchi uchragan funksiyaga beriladi. Funksiya bajarilgandan so`ng boshqaruv Yana dasturning funksiya chaqirilgan joyidan keyingi satriga beriladi.(Chaqirilgan funksiyadan keyingi satrga beriladi.)

Funksiyani ishlash jarayoniga mos o`xshashlik mavjud. Masalan, siz rasm chizib turgan vaqtingizda qalamingiz sinib qoldi. Siz rasm chizishni to`xtatasiz va qalamni yo`na boshlaysiz. Keyin esa, rasm chizishni qalamingiz sinib qolgan joydan boshlab davom ettirasiz. Qachonki, dastur biror bir xizmat ko`rsatuvchi amallarni bajarilishiga ehtiyoj seza boshlasa kerakli funksiyani chaqiradi. Bu operatsiya bajarilgandan so`ng esa dastur o`z ishini funksiya chpaqirilgan joydan boshlab davom ettiradi. Bu g`oya quyidagi listingda namoyish etilgan.

**Funksiyalarning qo`llanilishi.** Funksiyalar yo void tipidagi,yo boshqa biror bir tipdagi qiymat qaytaradi. Ikkita butun soni qo`shib, ularning yig`indisini qaytaradigan funksiya butun qiymat qaytaruvchi deyiladi. Faqatgina qandaydir amallarni bajarib, hech qanday qiymat qaytarmaydigan funksiyaning qaytaruvchi tipi void deb e'lon qilinadi.

Funksiya sarlavha va tanadan iboratdir. Funksiya sarlavhasida uning qaytaradigan tipi, nomi va parametrlari aniqlanadi. Parametrlar funksiyaga qiymat uzatish uchun ishlatiladi.

3-listing. Funksiyani chaqirilishiga misol.

```
 # include <iostream.h>
 //namoyish funksiyasi ekranga
 // axborot ma'lumot chiqaradi.
 void namoyish funksiyasi ( )
 {
 cout<<"g'n namoyish funksiyasi chaqirildi\n;
}
// main ( ) funksiyasi oldin axborot chiqaradi va
// namoyish funksiyasini chaqiradi
// Keyin yana namoyish funksiyasini chaqiradi
 int main ( )
{
cout <<"g'n Bu main ( ) funksiyasi \n";
 namoyish funksiyasi ( )j
cout <<"main ( ) funksiyasiga qaytildi\n";
 return 0; }
```

NATIJA:

Bu main ( ) funksiyasi namoyish funksiyasi chaqirildi va so`ng main( ) funksiyasiga qaytildi.

Parametr – bu funksiyaga uzatiladigan qiymat tipini e'lon qilishdir. Funksiya chaqirilganda unga uzatiladigan qiymat argument deb aytiladi. Ko`pchilik dasturchilar bu ikkala tushunchani sinonim sifatida qarashadi. Ba'zilar esa bu terminlarni aralashtirishni noprofessionallik deb hisoblaydi. Mavzularda ikkala termini bir xil ma'noda kelgan.

Funksiya tanasi ochiluvchi figurali qavs bilan boshlanadi va u bir necha qatordan iborat bo`lishi mumkin. (Funksiya tanasida hech qanday satr bo`lmasligi ham mumkin). Satrlardan keyin esa yopiluvchi figurali qavs keladi. Funksiyaning vazifasi uning satrlarida berilgan dasturiy kodlar bilan aniqlanadi. Funksiya dasturga return operatori orqali qiymat qaytaradi. Bu operator funksiyadan chiqish ma'nosini ham anglatadi.

Agarda funksiyaga chiqish operatorini (return) qo`ymasak funksiya satrlarini tugashi bilan u avtomatik void tipidagi qiymatni qaytaradi. Funksiya qaytaradigan tip uning sarlavhasida ko`rsatilgan tip bilan bir xil bo`lishi lozim.

Misol: Ixtiyoriy uchburchakning 3 ta (a,v,s) tomonlari berilgan bo`lsin, qolgan 7 ta noma'lum parametrlarini aniqlash dasturini tuzing.

Dasturi:

```
# include <iostream>
# include <math.h>
using namespase std;
void main ( )
{       {       double pi=3.14159265;
        double a=3,b=4,c,A,B,C=pi/4,r,R,S;
        c=sqrt (a*a+b*b-2*a*b*cos(C));
        A=sin ((a/c)*sin(C));
        B=asin((b/c)*sin(C));
        P=(a+b+c)/2; S=a*b*sin(c)/2;
        r =S/p;  R=a*b*c/(4*S);
        cout<<”yarim perimeter :  p= “
<<p<<endl;
        cout<<”Alfa burchak      :  A= “
<<A<<endl;
        cout<<”Betta burchak      :  B= “
<<B<<endl;
        cout<<”c tomon uzunligi : C=“
<<c<<endl;
        cout<<”Ichki aylana radiusi:r=“
<<r<<endl;
        cout<<”Tashqi aylana radiusi: R= “
<<R<<endl;
        cout<<”yuzi:  S= “
<<S<<endl;
        getchar ( ) ;       }
```

2.LABORATORIYA ISHI

Chiziqli strukturali dasturlar tuzish

1 - topshiriq: Arifmetik ifodalarni C++ algoritmik tilda yozing

1-variant	a) $U = \left\{ -\frac{\sin\lvert x\rvert + \cos\lvert x\rvert + tg\lvert x\rvert}{\sqrt[n]{2\sin + x\lvert\cos\lvert x}} \right.$	b) $Y = \left(ax^2 + b\sqrt[3]{x^2\cos^2 x + \frac{c}{x}} \right)^{\sin x}$
2-variant	a) $Y = \left(\frac{\sqrt{\sin\sqrt{\lvert x + x\rvert}}}{\lg\cos\lvert(x\rvert + 0,5)\rvert} \right)^3$	b) $T = \frac{e^{-x^2}\sin\lvert(kx)}{x\rvert + 2y\rvert + 3}$
3-variant	a) $Z = \frac{a\sqrt[5]{\sin^2 x - Ln^2(\sin x)}}{\sqrt[3]{(a^2 + b^2 + c^2)}}$	b) $T = \frac{e^{-x^2}\sin\lvert(kx)}{x\rvert + 2y\rvert + 3}$
4-variant	a) $U = \frac{(arctg^3(x^3) + 1.1\sec^3\sqrt[3]{x})^2}{\lg(0.1x) + \lg^3(0.2x)^4}$	b) $T = \frac{2x + 3\cos(x+1)}{\lvert 1 + (x+1)^2\rvert + abx^2}$
5-variant	a) $Y = \frac{2.15\cos x - 0.45\arccos x^3}{3.4\sqrt[5]{xe^{\cos x} + Ln^2(3.9 + x^3)}}$	b) $T = \frac{e^{-x^2}\sin^2(\cos x^2)}{\sqrt[4]{x + 2y^2}}$
6-variant	a) $Y = \frac{2.5\sin x + 0.75tg^2 x^3}{0.65\sqrt[3]{xe^{\sin x} + \cos^2 x^3}}$	b) $V = \frac{x^{-z^2} + z^{-x^3} + \cos x^2}{e^{(x^2 - z^2)} + e^{(x^2 + z^2)}}$
7-variant	a) $Y = \frac{(arctg^2(x^3) + 1.5\sec\sqrt[3]{x})^2}{tg(0.2x) + \lg^2(0.2x^3)}$	b) $Z = \left(\frac{ax - b^2tgx^2}{c^2x^2\ln x} \right)^{\frac{2x-b}{xe^x}}$
8- variant	a) $Z = \frac{\ln\sin\sqrt[3]{x + \sin\ln\sqrt[3]{y}}}{\lg x - e^{x-1}}$	b) $Y = \sqrt[3]{\frac{(\cos x + \sin x)^2}{arctg^4 x}}$

9- variant

a) $Z=\dfrac{10ab}{\sqrt{x\left(^{2kx}+3x^2\right)}}-\log_k(x+2)$

b) $Y=\sqrt[3]{1-x^4}\,\dfrac{\sqrt{x^2+3\cos\left(k\,\dfrac{x+1}{2}\right)}}{t^2+\dfrac{x^2+1}{\lg 2}}$

10-variant

a) $Y=\dfrac{\sqrt{3\sin 1.5x^3+1.6x^2+2.7x}}{\left|\cos 1n\sqrt{x+\sin^2\lg x}\right|}$

b) $T=\dfrac{e^{-x^3}}{\sqrt{x(y+\sin x)}\;\dfrac{1}{0.5+\left(x+\dfrac{y}{3}\right)^{-2}}}$

11-variant

a) $Y=a\sin x^2+\dfrac{b^2\cos^{-3}}{ax^2}-\left|\dfrac{ax^{-6}}{\left(\sqrt{b\ln^2 x}\right)^{-2}}\right|$

b) $Z=\dfrac{e^{-x^{-2}}}{\sqrt[3]{x}+\dfrac{x-\ln 1.2}{1.4+x+\dfrac{1}{x+1}}}$

12-variant

a) $Y=\dfrac{\arccos x+e^{-x}+\sqrt[3]{ax+2}}{3ax^3+\log_a x^2}$

b) $T=\dfrac{\log_\alpha\left(g(\alpha+\text{Я})\right)+x^{\alpha^\beta}}{e^{-\frac{t}{2}(\alpha x+\text{Я})}}$

13-variant

a) $\dfrac{a^3\sqrt{x+b\sqrt{|xz|}}}{e^{arctg|x|}}-\dfrac{\log_a b}{|xz|}$

b) $Z=\sqrt[3]{\dfrac{\sqrt{abx}}{\sqrt{b^2-4ac}}}+\dfrac{|x+1|}{|a-b|}$

14-variant

a) $Y=\dfrac{\arccos x+arctg(x+b)-e^{-at^2}}{\left|4^x-\sqrt{(ax-2)(bx-3)}\right|}$

b) $T=\sqrt[3]{\dfrac{abx}{\sqrt[5]{b^2-4ac}}}-\sqrt{b^2-4ac}$

15-variant

a) $\dfrac{a\sqrt[3]{x}+b\sqrt[3]{x-1}-e^{-\frac{t}{2}(ax+b)}}{arctgx+\cos^2 x^a}$

b) $T=5x^{\pi}-\mathrm{e}^{t-\cos^3 x}-\sqrt{\dfrac{\pi x^3}{1-x^2}}$

16-variant

a) $Y=\dfrac{\dfrac{1}{m\sqrt{ab}}\,arctg\left(e^{mx}\dfrac{a}{b}-a^{b}\right)}{e^{\sqrt{x}}\sqrt{\sqrt{x+\sqrt{x^2+a^2+b^a}}}}$ b) $Z=\dfrac{\sin(xy-e^{x})^{2}+10^{6}}{1+\dfrac{x}{y}2.05+0.0001e^{x^2}}$
17-variant a) $Y=\dfrac{\sqrt{x^2+a^2arctg\dfrac{x}{a}-\dfrac{\log b}{tg(x-b)}}}{\dfrac{\log a-\log_b a}{\sqrt{a^2}-x^2+0.00002}}$ b) $Z=\dfrac{10^{8}-e^{4\cos x}}{1n\left(\dfrac{x}{a}-\dfrac{10^{5}}{x^{3}}\right)}$
18- variant a) $Z=\sqrt{x^2}+a^2arctg\dfrac{x}{a}-\dfrac{\lg b}{tg\dfrac{x}{a}}$ b) $Y=\dfrac{tg\left(e^{mx}\sqrt{\dfrac{a}{b}}\right)-x^{-0.0003}}{\left(1-1g\left(x^{2+e^{-\frac{x}{2}}}\right)\right)^{0.003}}$
19- variant a) $Y=\dfrac{\dfrac{r^2}{4}\ln\left\|v+\sqrt{v^2-r^2}\right\|-r^{-0,0004}}{\sqrt{x+\sqrt{9-x^2}+v^{r+1}}}$ b) $Z=\dfrac{e^{\frac{x}{2}}\cos\sqrt{\dfrac{x}{2}}}{x-e^{3^{\|\sin 3x\|}}}+e^{\frac{x}{\sqrt{2}}}$
20- variant a) $Y=\dfrac{e^{\sin 3x}+\log_a(arctgx)+tg^2x}{\dfrac{1}{2}\log_2\dfrac{1+\sin x}{1-\cos x}}$ b) $Z=e^{-arctg(\frac{ч}{\phi})}+\left[\dfrac{x}{a}-\ln(be^{x})\right]$
21-variant a) $Y=arctgx^3+\dfrac{ax-g}{cb^2}+\lg\|x-a\|-e^{ax}+3^{-x^2}$ b) $Z=\sqrt[5]{7.003\sqrt{3.1+\dfrac{1}{3}(e^2-e^4)}+arctg(-\dfrac{3}{4})}$
22-variant a) $Y=\dfrac{\cos(\sin x)+be^{x}}{bx}+\dfrac{ctg(x)}{a^2+bx}-\sqrt[3]{ab+7}$ b) $Z=a^{a+c}+\dfrac{\sqrt{ax^2+2}}{bc^2}+\arcsin\dfrac{\sqrt{3}}{2}-\dfrac{0.001}{3^{-3}ctg^{\sqrt{5}}}$
23-variant a) $Y=\dfrac{36.6x+4*10^{-6}+\log_8 x}{8.48x^4}+10^{-8}\sec(x+1)$

b) $Z = \arccos^3(6x+3) + \dfrac{\sqrt[5]{5^{x+a} * 10^{-7}}}{\sqrt{ax+b}}$
24-variant a) $Y = \dfrac{e^{x^2}\sin(x+6) + \sqrt{\lvert a-b\rvert} - 10^{-6}}{\ln 136.4 - 55.6 * 10^{-5}}$ b) $Z = arctg(3x^3 + a) - 7^{\lvert x-a\rvert} + \log_4\lvert x-a\rvert$
25-variant a) $Y = \dfrac{\ln^5\lvert a-b\rvert + \dfrac{ax^4}{a+bx} - e^{-x^2}\log_3\lvert x-ab\rvert}{3\arg^{1.04}\sin\dfrac{\sqrt{3}}{2} + 10^{-8}}$ b) $Z = \arg\cos(a-b)^2 + \dfrac{a+c}{ax10^{-4}} + \lg 15\dfrac{26.12}{133 * 10^{-5}}$
26-variant a) $A_{24} = W^{-5}\left(6.32 * 10^{-5} - \dfrac{1}{5}\log\left(\dfrac{6.38 * 10^{-8} + tgt}{p\cos t + 4.23}\right)^3\left(\dfrac{W-t}{W+t}\right)^{\frac{1}{4}}\right)$ b) $A_{25} = h_{2x}\left[K_2 - 1 + e^{\left(\frac{1}{x}\right)}tgx\right] + \dfrac{9.001 * 10^{-3}}{\cos^2\infty - 3}$
27-variant a) $A_{15} = (c_0x^2 + c_1x + c_2)Sin\left(\dfrac{\sqrt[4]{w-k}}{wx-k}\right) + \lg\sqrt{w-k}$ b) $A_{16} = \beta\cos\left(\dfrac{\alpha-\beta}{t}x\right) - \dfrac{w\beta((-k))}{v\sqrt{t+\cos t}} + tg\sqrt{w-k}$
28-variant a) $A_{20} = \dfrac{w\beta((-k))}{v\sqrt{t+\cos t}} - arctg\dfrac{w-v}{w+v} + 0.51 * 10^7$ b) $A = 4.58 * 10^{-5}\sqrt{\lvert 6.31 - 25t\rvert} + e^t - \sin\pi t$
29-variant a) $A_4 = 6.723 * 10^{-7} - \beta^5\sqrt{\cos^3(x-y)^2} + \dfrac{10^{-4}}{5-\cos x}$ b) $Z = \sqrt{x^2} + a^2 arctg\dfrac{x}{a} - \dfrac{(\lg b)}{tg\dfrac{x}{a}}$
30-variant a) $A_1 = 4.66 * 10^{-12}\sqrt{\lvert 6.31 - 25t\rvert + \log_5\left[w\left(t - \dfrac{x}{c-\sin t}\right)\right]}$ b) $A_2 = e - \sin\dfrac{a}{\beta} + \dfrac{w\beta((-k))}{v\sqrt{t+\cos t}} - arctg\dfrac{w-v}{w+v} + 0.51 * 10^7$

2-Topshiriq:Arifmetik ifodalarni C++ algoritmik tilda yozing va dasturini tuzing

Hisobotda quyidagilar bo`lishi kerak:

1) Variantingaz sharti
2) Dastur teksti
3) Hisob natijasi (Monitordan ko`chirib oling)

1-variant	a) $U=\dfrac{a^3\sqrt{x+b\sqrt{\lvert xz\rvert}}}{e^{arctg\lvert x\rvert}}-\dfrac{\log_a b}{\lvert xz\rvert}$	b) $Y q\left(ax^2+b\sqrt[3]{x^2\cos^2 x+\dfrac{c}{x}}\right)^{\sin x}$
2-variant	a) $Y=\left(\dfrac{\sqrt{\sin\sqrt{\mathrm{x}+\mathrm{xi}}}}{\lg\cos \mathrm{I}(\mathrm{xI}+0{,}5)\mathrm{I}}\right)^3$	b) $T=\dfrac{e^{-x^2}\sin \mathrm{I}(kx)}{\mathrm{xI}+2\mathrm{yI}+3}$
3-variant	a) $Z\ =\dfrac{a\sqrt[5]{\sin^2 x-Ln^2(\sin x)}}{\sqrt[3]{(a^2+b^2+c^2)}}$	b) $T=\dfrac{e^{-x^2}\sin \mathrm{I}(kx)}{\mathrm{xI}+2\mathrm{yI}+3}$
4-variant	a) $U=\dfrac{(arctg^3(x^3)+1.1\sec^3\sqrt[3]{x})^2}{\lg(0.1x)+\lg^3(0.2x)^4}$	b) $T=\dfrac{2x+3\cos(x+1)}{\lvert 1+(x+1)\rvert^2+abx^2}$
5-variant	a) $Y=\dfrac{2.15\cos x-0.45\arccos x^3}{3.4\sqrt[5]{xe^{\cos x}+Ln^2(0.9+x^3)}}$	b) $T=\dfrac{e^{-x^2}\sin^2(\cos x^2)}{\sqrt[4]{x+2y^2}}$
6-variant	a) $Y=\dfrac{2.5\sin x+0.75tg^2x^3}{0.65\sqrt[3]{xe^{\sin x}+\cos^2 x^3}}$	b) $V=\dfrac{x^{-z^2}+z^{-x^3}+\cos x^2}{e^{(x^2-z^2)}+e^{(x^2+z^2)}}$
7-variant	a) $Y=\dfrac{(arctg^2(x^3)+1.5\sec\sqrt[3]{x})^2}{tg(0.2x)+\lg^2(0.2x^3)}$	b) $Z=\left(\dfrac{ax-b^2tgx^2}{c^2x^2\ln x}\right)^{\frac{2x-b}{xe^x}}$
8- variant	a) $Z=\dfrac{\ln\sin\sqrt[3]{x+\sin\ln\sqrt[3]{y}}}{\lg x-e^{x-1}}$	b) $Y=\sqrt[3]{\dfrac{(\cos x+\sin x)^2}{arctg^4 x}}$

9- variant a) $Z = \dfrac{10ab}{\sqrt{x\left(e^{2kx}+3x^2\right)}} - \log_k\left(x+2\right)$ $\qquad Y = \sqrt[3]{1-x^4}\,\dfrac{\sqrt{x^2+3\cos\left(k\,\dfrac{x+1}{2}\right)}}{t^2+\dfrac{x^2+1}{\lg 2}}$	
10-variant $Y = \dfrac{\sqrt{3\sin 1.5x^3+1.6x^2+2.7x}}{\left\lvert \cos 1n\sqrt{x+\sin^2 \lg x}\right\rvert}$ $\qquad$ b) $T = \dfrac{e^{-x^3}}{\sqrt{x\left(y+\sin x\right)} - \dfrac{1}{0.5+\left(x+\dfrac{y}{3}\right)^{-2}}}$	
11-variant a) $Y = a\sin x^2 + \dfrac{b^2\cos^{-3}}{ax^2} - \left\lvert \dfrac{ax^{-6}}{\left(b\ln^2 x\right)^{-2}}\right\rvert$ $\qquad$ b) $Z = \dfrac{e^{-x^{-2}}}{\sqrt[3]{x}+\dfrac{x-\ln 1.2}{1.4+x+\dfrac{1}{x+1}}}$	
12-variant a) $Y = \dfrac{\arccos x + e^{-x}+\sqrt[3]{ax+2}}{3ax^3+\log_a x^2}$ $\qquad$ b) $T = \dfrac{\log_\alpha\left(tg\left(\alpha x+Я\right)\right)+x^{\alpha^\beta}}{e^{-\frac{t}{2}\left(\alpha x+Я\right)}}$	
13-variant a) $\dfrac{a^3\sqrt{x+b\sqrt{\lvert xz\rvert}}}{e^{arctg\lvert x\rvert}} - \dfrac{\log_a b}{\lvert xz\rvert}$ $\qquad$ b) $Z = \sqrt[3]{\dfrac{\sqrt{abx}}{\sqrt{b^2-4ac}}} + \dfrac{\lvert x+1\rvert}{\lvert a-b\rvert}$	
14-variant a) $Y = \dfrac{\arccos x + arctg(x+b) - e^{-at^2}}{\left\lvert 4^x - \sqrt{(ax-2)(bx-3)}\right\rvert}$ $\qquad$ b) $T = \sqrt[3]{\dfrac{abx}{\sqrt[5]{b^2-4ac}}} - \sqrt{b^2-4ac}$	
15-variant a) $\dfrac{a\sqrt[3]{x}+b\sqrt[3]{x-1}-e^{-\frac{t}{2}\left(ax+b\right)}}{arctgx+\cos^2 x^a}$ $\qquad$ b) $T = 5x^\pi - \mathrm{e}^{t-\cos^3 x} - \sqrt{\dfrac{\pi x^3}{1-x^2}}$	

16-variant

a) $$Y=\frac{\frac{1}{m\sqrt{ab}}\,arctg\left(e^{mx}\frac{a}{b}-a^{b}\right)}{e^{\sqrt{x}}\sqrt{\sqrt{x+\sqrt{x^{2}+a^{2}+b^{a}}}}}$$

b) $$Z=\frac{\sin(xy-e^{x})^{2}+10^{6}}{1+\frac{x}{y}2.05+0.0001e^{x^{2}}}$$

17-variant

a) $$Y=\frac{\sqrt{x^{2}+a^{2}arctg\frac{x}{a}-\frac{\log b}{tg(x-b)}}}{\frac{\log a-\log_{b}a}{\sqrt{a^{2}}-x^{2}+0.00002}}$$

b) $$Z=\frac{10^{8}-e^{4\cos x}}{1n\left(\frac{x}{a}-\frac{10^{5}}{x^{3}}\right)}$$

18- variant

a) $$Z=\sqrt{x^{2}}+a^{2}arctg\frac{x}{a}-\frac{\lg b}{tg\frac{x}{a}}$$

b) $$Y=\frac{tg\left(e^{mx}\sqrt{\frac{a}{b}}\right)-x^{-0.0003}}{\left(1-1g\left(x^{2+e^{-\frac{x}{2}}}\right)\right)^{0.003}}$$

19- variant

a) $$Y=\frac{\frac{r^{2}}{4}\ln\left|v+\sqrt{v^{2}-r^{2}}\right|-r^{-0,0004}}{\sqrt{x+\sqrt{9-x^{2}}+v^{r+1}}}$$

b) $$Z=\frac{e^{\frac{x}{2}}\cos\sqrt{\frac{x}{2}}}{x-e^{3^{|\sin 3x|}}}+e^{\frac{x}{\sqrt{2}}}$$

20- variant

a) $$Y=\frac{e^{\sin 3x}+\log_{a}(arctgx)+tg^{2}x}{\frac{1}{2}\log_{2}\frac{1+\sin x}{1-\cos x}}$$

v) $$Z=e^{-arctg(\frac{ч}{\phi})}+\left[\frac{x}{a}-\ln\left(be^{x}\right)\right]$$

21-variant

a) $$Y=arctgx^{3}+\frac{ax-g}{cb^{2}}+\lg|x-a|-e^{ax}+3^{-x^{2}}$$

b) $$A=\beta\cos\left(\frac{\alpha-\beta}{t}x\right)-\frac{w\beta((t-k))}{v\sqrt{t+\cos t}}+tg\sqrt{w-k}$$

22-variant

a) $$Y=\frac{\cos(\sin x)+be^{x}}{bx}+\frac{ctg(x)}{a^{2}+bx}-\sqrt[3]{ab+7}$$

b) $$Z=a^{a+c}+\frac{\sqrt{ax^{2}+2}}{bc^{2}}+\arcsin\frac{\sqrt{3}}{2}-\frac{0.001}{3^{-3}ctg^{\sqrt{5}}}$$

23-variant

$$\text{a) } Y=\frac{36.6x+4*10^{-6}+\log_8 x}{8.48x^4}+10^{-8}\sec(x+1)$$

$$\text{b) } Z=\arccos^3(6x+3)+\frac{\sqrt[5]{5^{x+a}*10^{-7}}}{\sqrt{ax+b}}$$

24-variant

$$\text{a) } Y=\frac{e^{x^2}\sin(x+6)+\sqrt{|a-b|}-10^{-6}}{\ln 136.4-55.6*10^{-5}}$$

$$\text{b) } Z=\sqrt{x^2}+a^2 arctg\frac{x}{a}-\frac{\lg b}{tg\frac{x}{a}}$$

25-variant

$$\text{a) } Y=\frac{\ln^5|a-b|+\frac{ax^4}{a+bx}-e^{-x^2}\log_3|x-ab|}{3\arg^{1.04}\sin\frac{\sqrt{3}}{2}+10^{-8}}$$

$$\text{b) } Z=\arg\cos(a-b)^2+\frac{a+c}{ax10^{-4}}+\lg 15\frac{26.12}{133*10^{-5}}$$

26-variant

$$\text{a) } A_2=W^{-5}\left(6.32*10^{-5}-\frac{1}{5}\log\left(\frac{6.38*10^{-8}+tgt}{p\cos t+4.23}\right)^3\left(\frac{W-t}{W+t}\right)^{\frac{1}{4}}\right)$$

$$\text{b) } A_3=h_{2x}\left[K_2-1+e^{\left(\frac{1}{2X}\right)}tgx\right]+\frac{9.001*10^{-3}}{\cos^2 X-3}$$

27-variant

$$\text{a) } A_{15}=(c_0x^2+c_1x+c_2)Sin\left(\frac{\sqrt[4]{w-k}}{wx-k}\right)+\lg\sqrt{w-k}$$

$$\text{b) } A_{16}=\beta\cos\left(\frac{\alpha-\beta}{t}x\right)-\frac{w\beta((2-k))}{v\sqrt{t+\cos t}}+tg\sqrt{w-k}$$

28-variant

$$\text{a) } A_{20}=\frac{w\beta((2-k))}{v\sqrt{t+\cos t}}-arctg\frac{w-v}{w+v}+0.51*10^7$$

$$\text{b) } A=4.58*10^{-5}\sqrt{|6.31-25t|}+e^t-\sin\pi t$$

29-variant

$$\text{a) } A_4=6.723*10^{-7}-\beta^5\sqrt{\cos^3(x-y)^2}+\frac{10^{-4}}{5-\cos x}$$

$$\text{b) } A_5=\gamma e^{\beta x}\cos^3\left[w\left(t-\frac{x}{c-\sin t}\right)\right]+4.0005*10^{-3}+e^t$$

30-variant

$$\text{a) } A_1=4.66*10^{-12}\sqrt{|6.31-25t|+\log_5\left[w\left(t-\frac{x}{c-\sin t}\right)\right]}$$

$$\text{b) } A_2=e^w-\sin\frac{a}{\beta}+\frac{w\beta((2-k))}{v\sqrt{t+\cos t}}-arctg\frac{w-v}{w+v}+0.51*10^7$$

3-Topshiriq:Berilgan uchburchakning ma'lum parametrlariga asoslanib, noma'lum parametrlarinini topish algoritmi va dasturini tuzing.

Hisobotda quyidagilar bo`lishi kerak:

1) Variantingiz sharti
2) Dastur matni
3) Hisob natijasi (Monitordan ko`chirib oling)

3- topshiriqni bajarishga amaliy ko`rsatma

Ushbu laboratoriya topshirig`ini yechishda kuyidagi ma'lumotlar foydali bo`ladi:
Ixtiyoriy AVS uchburchak berilgan bo`lsin.



a, b, s - Uchburchakning tomonlari.
ά, β, γ - Uchburchakning a,v,s tomoyalari tugrisida yotuvchi mos burchaklar.
S, R - Uchburchakni yuzasi va perimetri.
R, g - Uchburchakga tashki va ichki chizilgan aylana;
Quyidagi formulalardan foydalanishni tavsiya etamiz.

$\frac{a}{\sin\alpha} = \frac{b}{\sin\beta} = \frac{c}{\sin\gamma} = 2R$ (1) (Sinuslar teoremasi)

$a^2 = b^2 = s^2 - 2bc \, Cos\alpha$ (2) (Kosinuslar teoremasi)

P = a + b + c (3) (Uchburchakning perimetri)

$PI = \frac{p}{2}$ (4) (Uchburchakning yarim perimetri)

$R = \frac{abc}{4S}$ (5) (Uchburchak tashkarisiga chizilgan aylananing radiusi)

$r = \frac{2S}{a+b+c}$ (6) (Uchburchak ichiga chizilgan aylananing radiusi)

$S = \frac{1}{2} abSiny$ (7)

$S = \sqrt{PI(PI-a)(PI-b)(PI-c)}$ (8) Geron formulasi.

Uchburchakning aniklovchi parametrlari: uchburchakning uchta burchagi, uchburchakning yuzasi (S) uchburchakning perimetri (R) uchburchakka ichki va tashki chizilgan aylanalarning radiuslari (g, R).

Variant nomerlari	Uchburchakning ma'lum bulgan parametrlari	Noma'lum parametrlar
1	2	3
1	A = 3, Ь = 4, c=5	α,P,S,P1,R,r,β, γ
2	a = 4, в=4, γ = π /3	β, α ,c,S,R,P,,r
3	b = 5, α = π /4, β = π /2	R,S,P,a,c,r,p1, γ
4	b = 4, α = π /6, γ = π / 2	c,S,R,P,p1,a,r, β
5	a= 4, Ь = 4, γ = π / 4	P,S,P1,R,r,c, β, α
6	a = 3, Ь = 4, P=12	c,S,R,r, α,β,γ
7	a = 2, R= $\sqrt{2}$, γ = π /4	S,r,b,c,P,α ,β
8	a = 3, b = 4, α = π /4	P,γ ,β,c,R,r,S
9	a =4, c = 3, β= π /2	α , γ,b,S,P,R,r
10	a=2, b = 2, S = 4 $\sqrt{3}$	r,c,P,R,α ,β,γ
11	a =2, Ь = 2, γ = π /4	α ,β,c,S,P,R,r
12	c =6, α = π /4, β = π /3	a,b,R,P,r,S, γ
13	R = 2.4, α = π /6, β = π /3	a,b,c,P,r,S, γ
14	a = 5, b = 3, P=12	c,r,R,S, γ, α,β
15	S = 12, α = π /6, β = π /3	R,r,a,b,c,P, γ
16	b = 5, c = 6, S = 3,125	a,P,R ,r , α,β, γ
17	a= 10, b = 8, c = б	R,S,P,r, α,β, γ
18	a = b = 3, γ = π /4	c,P,г, S,α,β,R,
19	b=15, α = π /3, β = π /4,	a,c,R,P,S,r, γ
20	R = 2 $\sqrt{2}$, α = β = π /4	a,b,c,r,P,S, γ
21	b = 8, α = π /3, γ = π /6	a,c,P,R,S,r, β
22	a = b = 2, α = л/4	c,R,r,S,P, β,γ
23	a = 4, P = 22, γ = π /4	b,c,r,S,R,α , β
24	a = 6, b = 4, α = л/4	c,R,P,S,r, β,γ
25	a=6, b = 8, R = 5	c,r,S,P, α , β,γ
26	a= 8, Ь = 8, γ = π / 4	P,S,P1,R,r,c, β, α
27	b=10, α = π /3, β = π /4,	a,c,R,P,S,r, γ
28	a = 10, b = 6, P=24	c,r,R,S, γ, α,β
29	b = 4, α = π /6, γ = π /3	a,c,P,R,S,r, β
30	S = 36, α = π /6, β = π /3	R,r,a,b,c,P, γ

4-Topshiriq

Jadvaldan o`z variantingizga xos mantiqiy ifoda qiymatini tegishli qoidalarga asoslangan holda xisoblang va kompyuterda xisoblash uchun dastur tuzing.

Hisobotda quyidagilar bo`lishi kerak:

1) Variantingaz sharti
2) Dastur matni
3) Hisob natijasi (Monitordan ko`chirib oling)

v-t	Ifodalar
V1	$Z = \lvert x + y^2 \rvert = 18 \vee x < 18y \wedge (A \vee \sqrt{\lvert y \rvert} + 2 = 26) \vee B$ $x = 7; y = -8; A = TRUE; B = FALSE$
V2	$Z = (tgx \geq 1) \vee \cos^2 x > \sin x \vee A \vee (\sin^2 x < 0.5 \vee \cos x \leq 0)$ $x = PI/4; A = TRUE$
V3	$Z = e^x \geq 3 \wedge \lvert (A \vee x - y > 2x^2 \vee xy > 5 \wedge 3\sqrt{x^2} \leq 3)$ $x = -4; y = -2; A = FALSE$
V4	$Z = 2 \leq x \wedge x < 4 \vee \lvert (2.8 < x \vee x < -1.4 \vee x^2 + y^2 < 16) \vee A$ $x = 3; y = -2.4; A = TRUE$
V5	$Z = -5 < x \wedge x < -2 \vee y > 0 \vee \lvert (x < 0 \wedge y > 0 \vee x > y + 2)$ $x = 3; y = 3;$
V6	$Z = (y > \lvert x \rvert \wedge xy \geq 0) \vee x^2 + y^2 \leq 9 \wedge (-3 < x \wedge x < 7 \wedge c)$ $x = -2; y = 3; c- = FALSE$
V7	$Z = (x^2 + y^2 \leq 4 \vee -3 < x) \wedge x < -2 \vee y < x \wedge x < 2 \wedge A$ $x = 10; y = 1; A = FALSE$
V8	$Z = y > b \wedge b^2 + y^2 > 4 \wedge A \vee (b > 0 \wedge y < 0 \wedge y > b + 2)$ $b = 5; y = -3; A = TRUE$
V9	$Z = y > 0 \wedge x^2 + y^2 \leq 1 \vee x < -2 \wedge y + \lvert x \rvert \geq 0 \wedge (\lg \lvert x \rvert < 7 \vee x = y)$ $x = -8; y = 2;$
V10	$Z = xy > 0 \wedge x^2 + y^2 > 16 \vee y > x^2 \wedge B \wedge x^2 + y^2 \leq 9$ $x = -1; y = 3; B = TRUE$
V11	$Z = (x - 4y > 10 \vee c) \vee x + y \leq 7 \vee (\sqrt{\lvert x + y^2} \rvert = 1 \wedge x > 2y$ $x = -3; y = 4; c = TRUE$
V12	$Z = A \wedge B \vee (x^2 < 12 \wedge 2x \leq 5) \vee e^{x+1} > 7 A = TRUE\ B = TRUE\ x = 3$
V13	$Z = x^2 - 0.5 > 0 \wedge c \wedge x > 2 \vee (x^2 + 0.5 \leq 4 \vee c)$ $x = 1; c = FALSE$
V14	$Z = x + 1 \leq 0 \vee A \vee (x^2 - 1 < 0 \wedge x < 5) \wedge e^{x+1}$ $x = -1; A = FALSE$
V15	$Z = A \vee xy = 1 \vee (x > 1 \wedge y < 3 \vee x^2 + y^2 > 9) \wedge x \neq 8y$ $x = 2; y = 2; A = TRUE$

V16	$Z = x > 0 \wedge (x < 0.7 \vee A) \wedge x > 3.1 \vee 4 < x(x-2)$ $x = -0.1; A = TRUE;$
V17	$Z = (x + y \geq A \wedge x = 2y) \vee x^2 + y \neq y^2 \vee x > 0.3 \wedge x < 5$ $x = 4; y = 2; A = TRUE$
